Raqamli davr bolasini tarbiyalashda psixologik muvozanatni saqlash orqali sog'lom shaxsni shakllantirish	896
<i>Hakimova Ziyoda Ibrohim qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik intellektini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	900
<i>Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi</i>	
O'qish savodxonligini rivojlantirishda qo'llaniladigan nazariy modellar	903
<i>Abdiraimova Xusnobod Samat qizi</i>	
Talabalar mustaqil ta'limini individuallashtirish metodlari	910
<i>Arzikulova Surayyo Fayzullayevna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishning amaliy asoslari	914
<i>Xoliqulova Kumush Ilxom qizi</i>	
Psixologik-pedagogik yondashuvlar asosida mahdudlik holatlarini bartaraf etishning takomillashtirilgan metodikasi (maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari misolida)	919
<i>Mamatqulova Dinora Yunus qizi</i>	

Ilg'or pedagogik texnologiyalar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish	923
Uzoqova Husnora	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish jamiyatning asosiy talabi sifatida	927
Toshimova Gulzoda Jamoliddinovna	
Sun'iy intellekt vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy va moliyaviy savodxonligini shakllantirish mexanizmlari	930
Jumayeva Feruza Sayidovna	
O'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash (2-sinf misolida).....	936
Abdiyeva Shakila Ishkuvatovna	
Turistik faoliyatda ijtimoiy muloqot kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	941
Abdullayeva Sevara Yuldashevna	
Oilaning katta avlodi va maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtaqidagi psixologik munosabatlarning nazariy asoslari	944
Ashirova Sojida Baxromovna	
Yosh pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda tajriba almashishning ilmiy-metodik asoslari va usullari	948
Dildora Rustam qizi Fozilova	
Maktabga tayyorlov bosqichida o'quvchilar grafomotorikasini individual yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	951
Jumayev Sanjar Soatmumin o'g'li	
Uzluksiz ta'limda inklyuziv yondashuvning samaradorligini ta'minlovchi pedagogik va ijtimoiy omillar.....	955
Kobilova Shaxnoza Xudayshukurovna	
Tolerantlik tushunchasining mohiyati va uning ta'lim tizimidagi ahamiyati.....	958
Kurbanova Shoirra Abduraximovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni mashg'ulotlar jarayonida TRIZ texnologiyasi bilan tanishtirishning ahamiyati.....	961
Meliboyev Anvar Rashidovich	
The Conceptual Framework and Pedagogical Affordances of Vtss: A New Paradigm for Specialised Instruction.....	964
Nilufar Sabirova	
O'zbek oilalarida axloqiy tarbiya munosabatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	967
Qurbonova Go'zal Saydaxmatovna	
Fizika o'qitishda 4K kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari	973
Saydayev Obid Bahodir o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion faoliyat ko'nikmalarini takomillashtirishning modulli texnologiyalari	979
Saliyeva Perdexan Alimbetovna	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak ijtimoiy soha xodimlarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish	984
Qaxxorov Shahriyor Yodgorovich	
Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish usullari.....	987
Sattorova Shaxlo Axadovna, Omonova Shoxista Anvar qizi, Raximova Durdona Murot qizi	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishning afzalliklari	990
Sulaymanova Dildora Baxtiyorovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik sanalarga bag'ishlab ma'rifiy tadbirlar o'tkazishning afzalliklari.....	993
Tohirova Baxtigul Hasanboy qizi	
Pedagogik ta'limda talabalarning gnoseologik motivatsiyasini rivojlantirish zaruriyati	996
Xudoyqulova Dilrabo Shodmonovna	
Сопоставление русских и узбекских пословиц: сходства, различия и культурный контекст	1000
Касымова Феруза Суннатовна	
Теоретические аспекты развития мотивационной сферы в психологии изучения личности	1003
Маликова Эвелина Тимуровна	



Психологическая устойчивость личности в исследованиях узбекских учёных: теоретический анализ и применение концепции	1007
Саитходжаев Зуфар Хусан угли	
Biologiya ta'limida kognitiv yondashuv asosida o'quvchilarning universal o'quv faoliyatlarini shakllantirish	1011
Daminova Fayoz Abdixakimovna	
Milliy musiqa merosini zamonaviy ta'limda saqlash muammolari va yechimlari.....	1014
Haydarov Qutlug' Hamdamovich	
Sun'iy intellekt: maktabgacha ta'lim tashkilotining taraqqiyotini ta'minlovchi zamonaviy texnologiya sifatida.....	1017
Axmadaliyeva Mohlaroy Toxtapo'latovna	
Shukur Xolmirzayevning ijtimoiy-etnografik folklorizm yaratish mahorati	1021
Mamayusupova S. M.	
Androgogik va interfaol metodlarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlarda foydalanish samaradorligi.....	1024
Normamatov Muxiddin Abdumuminovich	
Tinglab tushunishning psixolingvistik xususiyatlari.....	1028
O. V. Kon	
Gi de Mopassanning hikoyachilik mahorati va badiiy uslubi.....	1032
Yuldashev Bahodir Bekmuratovich	
Художественный мир и стилистическая система прозы Патрика Модiano.....	1035
Давронова Зульфия Бобоевна	



KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING AMALIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Muxiddinova Nilufar Baxodirovna

Navoiy Davlat Universiteti Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning amaliy kompetentligini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonida amaliy kompetentlikni shakllantirish nafaqat ta'lim samaradorligini oshirish, balki pedagog kadrlarning raqobatbardoshligini ta'minlash hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etish salohiyatini rivojlantirishda muhim omil sifatida qaraladi. Tadqiqot doirasida "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalarining ilmiy-nazariy manbalardagi talqinlari tahlil qilinib, ularning psixologik, ijtimoiy, texnologik va shaxsiy jihatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: kredit-modul tizimi, amaliy kompetentlik, kasbiy kompetensiya, pedagogik mahorat, bo'lajak o'qituvchi, kognitiv komponent, faoliyat komponenti, innovatsion ta'lim texnologiyalari, raqamli ko'nikmalar, mustaqil ta'lim, ijodiy yondashuv, psixologik tayyorgarlik, ta'lim samaradorligi.

Abstract: The development of practical competence in future teachers within the framework of the credit-modular system is considered an important direction of contemporary pedagogical research. The formation of practical competence in the educational process serves as a significant factor determining not only the effectiveness of education but also the competitiveness of teaching staff and the potential for implementing innovative approaches. The study analyzes interpretations of the concepts of "competence" and "competency" in scientific and theoretical sources and highlights their psychological, social, technological, and personal aspects.

Key words: credit-modular system, practical competence, professional competence, pedagogical mastery, future teacher, cognitive component, activity component, innovative educational technologies, digital skills, independent learning, creative approach, psychological preparedness, educational effectiveness.

Аннотация: Развитие практической компетентности будущих учителей в условиях кредитно-модульной системы рассматривается как одно из актуальных направлений современного педагогического исследования. Формирование практической компетентности в образовательном процессе выступает важным фактором, определяющим не только эффективность образования, но и конкурентоспособность педагогических кадров, а также потенциал внедрения инновационных подходов. В исследовании анализируются интерпретации понятий "компетентность" и "компетенция" в научно-теоретических источниках, а также раскрываются их психологические, социальные, технологические и личностные аспекты.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, практическая компетентность, профессиональная компетенция, педагогическое мастерство, будущий учитель, когнитивный компонент, деятельностный компонент, инновационные образовательные технологии, цифровые навыки, самостоятельное обучение, творческий подход, психологическая подготовка, эффективность образования.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim muhitida pedagogik kadrlarning raqobatbardoshligi, texnologik innovatsiyalarga moslashuvi va amaliy tayyorgarlik salohiyati muhim omillarga aylanib bormoqda. Ayniqsa, o'qituvchilik kasbini tanlagan yoshlarning nafaqat nazariy bilimga ega bo'lishi, balki pedagogik faoliyatda mustaqil, ijodiy va samarali ishlash qobiliyatiga – ya'ni amaliy kompetentlikka – ega bo'lishi dolzarbdir. Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar aynan shu vazifani oldiga qo'ygan: amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, o'qituvchilarni zamonaviy talablarga muvofiq tayyorlash, ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etish.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan 2019-yilgi “O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida oliy ta’lim muassasalarini kredit-modul tizimiga bosqichma-bosqich o‘tkazish belgilab qo‘yilgan ^[1].

Shu nuqtai nazardan, kredit-modul tizimi sharoitida amaliy kompetentlikni rivojlantirish – bo‘lajak o‘qituvchilarni nafaqat nazariy tayyorlash, balki real pedagogik faoliyatga tayyorlash jihatidan – ta’lim tizimining zamonaviy talablari bilan uzviy bog‘liq jarayon hisoblanadi.

Kredit-modul tizimi sharoitida amaliy kompetentlikni rivojlantirish nafaqat ta’lim samaradorligi, balki pedagog kadrlar sifati, ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligi hamda ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etish salohiyati bilan chambarchas bog‘liq. Buning uchun tizimli islohotlar, individual va emotsional rivojlanishga asoslangan ta’lim muhitini yaratish dolzarb masala hisoblanadi.

Ta’limda amaliy kompetentlik – bu kelajak o‘qituvchisining kasbiy faoliyatida mustaqil, ijodiy va samarali ishlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladigan muhim omillardan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

YUNESKOning 2022-yilgi tahliliy hisobotida ta’kidlanishicha, “yuqori ta’lim tizimidagi innovatsion yondashuvlar faqat nazariy emas, balki amaliy faoliyat bilan uyg‘unlikda rivojlantirilgandagina samarali bo‘ladi”. Bunda oliy ta’lim muassasalarida 2030-yilgacha bo‘lgan davrda texnologik innovatsiyalar va ishlanmalardan foydalanib, yoshlar hamda kattalarning amaliy ko‘nikmalarini, xususan, yangi bilim va raqamli ko‘nikma hamda malakalarini rivojlantirish asosida barcha uchun umrbod va sifatli ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish muhimdir ^[2]. Bundan ko‘rinib turibdiki, kredit-modul tizimiga o‘tish jarayonida amaliy kompetentlikni rivojlantirish jamiyatimiz taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi.

Inglizcha “competence” tushunchasi lug‘aviy jihatdan bevosita qobiliyat ma’nosini ifodalaydi ^[7]. Mazmunan esa u faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish ma’nosini anglatadi. “Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelganligi sababli, kompetentlik noan’anaviy vaziyatlar va kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, muloqotga kirishishi, noaniq vazifalarni bajarishi, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishi hamda izchil rivojlanib boruvchi murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egaligini anglatadi ^[7].

“Kompetensiya” atamasi birinchi marta 1959-yilda R. V. Uaytning maqolasida mehnat motivatsiyasi tushunchasi sifatida paydo bo‘lgan. 1970-yilda Kreyg K. Lundberg kompetensiyaning “ijroni rivojlantirish dasturini rejalashtirish” sifatida ta’riflagan. Bu atama 1973-yilda Devid Maklelland tomonidan yozilgan “Intellectni emas, balki kompetensiyaning sinab ko‘rish” nomli maqoladan so‘ng keng ommalashgan. Maklelland tomonidan ishlab chiqilgan ushbu yondashuv AQSh Davlat departamenti tomonidan elchixonada xodimlarining umumiy xususiyatlarini aniqlash hamda ularni ishga qabul qilish va rivojlantirish jarayonida qo‘llash uchun tavsiya etilgan.

Shuni ta’kidlash kerakki, pedagogik ta’limni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari sharoitida tadqiqotchilar ushbu muammoni hal etishda turli xil uslubiy yondashuvlarga amal qiladilar. Shu sababli “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari ko‘p qirrali talqinlarni o‘z ichiga oladi.

Ta’kidlash joizki, “kompetentlik” tushunchasi dastlab falsafa, matematika, psixologiya va sotsiologiya fanlarida qo‘llanilgan. Mashhur olim, Edinburg universiteti (Buyuk Britaniya) professori doktor Jon Raven kasbiy kompetentlikni ma’lum bir fan sohasida muayyan harakatni samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan o‘ziga xos qobiliyat sifatida belgilaydi. U yuqori ixtisoslashgan, maxsus turdagi mavzu ko‘nikmalarini, fikrlash usullarini hamda o‘z harakatlari uchun javobgarlikni tushunishni o‘z ichiga oladi. J. Raven “Zamonaviy jamiyatdagi kompetentlik” (London, 1984-yil) asarida turli sohalarida (kognitiv, hissiy va boshqalar) tegishli mustaqil kompetentlarni sanab o‘tish orqali kompetensiya tushunchasining mohiyatini belgilaydi hamda ularni “tayyorlik”, “qobiliyat” kabi toifalar, shuningdek, psixologik xususiyatlar – “o‘z-o‘zini nazorat qilish”, “ishonch”, “mas’uliyat” kabi sifatlar orqali izohlaydi ^[3].

G. V. Muxametzyanova kasbiy kompetentlikni kasbiy faoliyatni ta’minlovchi bilim, ko‘nikma va malakalarning yaxlitligi hamda insonning o‘z malakasini amalda qo‘llash qobiliyati sifatida talqin etadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olishni ifoda etadi. Kasbiy kompetentlik murakkab jarayonlarda, noaniq vazifalarni bajarishda, bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda hamda kutilmagan vaziyatlarda harakat rejasiga ega bo‘la olishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatning mohiyatini ijtimoiy kompetentlik, maxsus kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, texnologik kompetentlik va eksperimental kompetentlik yoritib beradi.

V. N. Kunitsina ijtimoiy kompetentlikni ijtimoiy voqelik va o‘zi to‘g‘risidagi bilimlar tizimi, murakkab ijtimoiy ko‘nikmalar hamda o‘zaro ta’sir qobiliyatlari majmui, odatiy ijtimoiy vaziyatlarda xatti-harakatlar ssenariylari sifatida talqin qiladi. Bu esa shaxsga tez va adekvat moslashishga, mavjud vaziyatni hisobga olgan holda qaror qabul qilishga imkon beradi.



Nemis psixologlari U. Pfungsten va R. Xintch ijtimoiy kompetentlikni ma'lum bir davrda kognitiv, emotsional va motor xulq-atvor usullariga egalik qilish sifatida ta'riflaydilar.

A. G. Aslamov va G. U. Soldatova asarlarida esa ijtimoiy kompetentlik shaxsning jadal rivojlanib boruvchi xususiyati sifatida talqin etilib, u yosh bosqichi talablariga muvofiq maktab muhitiga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan kognitiv hamda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar majmuini o'z ichiga oladi ^[4].

- shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy rivojlanish, malaka darajasini oshirib borish hamda kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish;
- texnologik kompetentlik – kasbiy pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni boyitish, innovatsion tadqiqot metod va texnologiyalarini o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnik hamda texnologiyalardan foydalana olish;
- eksperimental kompetentlik – favqulodda vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish va to'g'ri harakat qilish malakasiga ega bo'lish;
- maxsus kompetentlik – kasbiy pedagogik faoliyatni tashkil etishda fan va pedagogika sohasida amaliy harakatlarni amalga oshira olish, ta'lim jarayonini tashkil etish va baholash.

Ushbu kompetentliklar negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentliklar namoyon bo'ladi. Ular quyidagi mazmunni ifodalaydi:

- psixologik kompetentlik – faoliyat jarayonida sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar bilan ijobiy muloqotni tashkil etish hamda turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglab, bartaraf eta olish;
- metodik kompetentlik – faoliyat jarayonini metodik jihatdan oqilona tashkil etish, nazariy yoki amaliy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, ta'lim jarayonida metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlash hamda ularni samarali qo'llay bilish;
- informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim va foydali ma'lumotlarni yig'ish, saralash, qayta ishlash hamda ulardan samarali foydalanish;
- kreativ kompetentlik – faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyon eta olish;
- innovatsion kompetentlik – ta'lim jarayonini takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi g'oyalarni ilgari surish hamda ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;
- kommunikativ kompetentlik – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, xususan talabalar bilan samimiy muloqotni yo'lga qo'yish, ularni tinglay bilish va ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish ^[8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bo'lajak o'qituvchilarning amaliy kompetentligini rivojlantirish kasbiy va pedagogik mahorat guruhlarini kredit-modul tizimining maqsadlari bilan uzviy bog'langan bo'lib, uning shakllanish ko'rsatkichlari quyidagicha:

- gnostik ko'nikmalar – umumiy kasbiy, ishlab chiqarish va psixologik-pedagogik bilimlarni o'zlashtirish sohasidagi kognitiv ko'nikmalar, yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishni ta'minlaydigan, undagi asosiy va muhim jihatlarni ajratib ko'rsatish, o'z pedagogik tajribasini tizimlashtirish;
- g'oyaviy ko'nikmalar – tengdoshlari o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarda yetakchilik qilish, pedagogik bilimlarni targ'ib qilish bo'yicha ahamiyatga molik ko'nikmalar;
- didaktik ko'nikmalar – aniq o'quv maqsadlarini belgilash, o'qitishning adekvat shakllari, usullari va vositalarini tanlash, pedagogik vaziyatlarni qurish, o'quv va ishlab chiqarish materiallarini tushuntirish, ish usullarini ko'rsatishda umumiy pedagogik mahorat;
- tashkiliy va uslubiy ko'nikmalar – ta'lim va tarbiya jarayonini amalga oshirishda o'quv motivatsiyasini shakllantirish, talabalarning o'quv va kasbiy faoliyatini tashkil etish, pedagogik jihatdan asoslangan munosabatlarni o'rnatish, jamoani shakllantirish, o'zini o'zi boshqarishni tashkil etish ko'nikmalari;
- kommunikativ va rejissyorlik mahorati – umumiy pedagogik mahorat, idrok etish, ifodalash, taklif qilish, notiqlik va pedagogik rejissyorlik sohasidagi malakalar;
- prognostik ko'nikmalar – ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli bashorat qilishning umumiy pedagogik mahorati, individual va guruh diagnostikasi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, pedagogik jarayonning muqobil modellari hamda shaxs va guruh rivojlanishini loyihalash, jarayon va natijani nazorat qilish;



- refleksiv ko'nikmalar – o'z-o'zini bilish, kasbiy faoliyat va kasbiy xulq-atvorni baholash, o'z-o'zini anglash qobiliyati;
- tashkiliy va pedagogik mahorat – ta'lim jarayonini rejalashtirishning umumiy jihatlari, o'zaro ta'sir mexanizmlarini ishlab chiqish va amalda qo'llay olish ko'nikmalari;
- umumiy kasbiy malakalar – pedagogik ta'lim jarayonini boshqarish, ta'lim jarayonini tashkil etish maqsad va vazifalarining to'liq bajarilishini ta'minlash, ta'lim shakllari, usullari va vositalarini to'g'ri tanlay olish;
- loyihalash ko'nikmalari – ta'lim jarayonini loyihalash, kafolatlangan natijaga erishishni prognozlash, natijalarni tahlil qilish;
- texnologik ko'nikmalar – pedagogik texnika qoidalariga rioya qilish, ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnik vositalardan foydalana olish.

Pedagogika fani va amaliyotida kasbiy kompetentlikning metodologik ahamiyati kasbiy faoliyatning mazmunli tomonini tavsiflaydi va faoliyatning akmeologik darajasiga erishishda maqsad, vosita, metod va shakllardan tizimli foydalanish muhimligini ko'rsatadi.

B. G. Ananyev, A. I. Dontsov, N. V. Kuzmina, A. A. Derkachlar akmeologik yondashuv doirasida kasbiy kompetentlikni shaxs kasbiy mahoratining asosiy kognitiv tarkibiy qismi deb belgilab, kasbiy kompetentlik sohasi hal qilinishi kerak bo'lgan bir qator masalalar sifatida, yuqori mahsuldorlik bilan kasbiy faoliyatni amalga oshirish imkonini beruvchi bilimlar tizimini doimiy ravishda kengaytirishda kasbiy kompetentlikning bir qismi sifatida amaliy kompetentlikni rivojlantirish taklifini ilgari suradilar.

Amaliy kompetentlik – bu shaxsning o'z bilim va ko'nikmalarini real muammolarni hal qilish va amaliy faoliyatda aniq natijalarga erishish uchun qo'llash qobiliyatidir. Bu nafaqat bilimni, balki ushbu bilimlardan turli vaziyatlarda foydalanish, yangi sharoitlarga moslashish va berilgan vazifalarni samarali bajarish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. U nazariy bilim, amaliy ko'nikma, tajriba, shaxsiy munosabatlar va tanqidiy fikrlashning yaxlit tizimida namoyon bo'ladi ^[7].

V. I. Baydenko, V. A. Bolotov, Ye. F. Zeyerning tadqiqotlarida keltirilishicha, amaliy kompetentlikning yo'nalishi "inson amaliyotida bilim va harakatlar o'rtasida mavjud munosabatlar sohasi" sifatida qayd etilgan bo'lsa, "kompetensiya" shaxs sifatining tarkibiy qismi, uning muayyan turdagi faoliyatning muayyan guruhini bajarish qobiliyatini belgilaydigan xususiyatlar guruhidir ^[9].

Qobiliyat deganda moyillik emas, balki mahorat, ya'ni qobiliyatlilik tushuniladi, qobiliyatli shaxs qanday harakat qilishni biladi. Qobiliyatni belgilovchi harakat va malakalar amaliy kompetentlikning asosini tashkil qiladi. Bundan tashqari, olimlarning fikricha, amaliy kompetentlik bu faqat bilish emas, balki:

- amaliy ko'nikmalar;
- muammo yechimidagi faollik;
- iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik sharoitga moslashuv;
- insonning amaliy faoliyati orqali o'z bilimlarini faollashtirish qobiliyati kabi jihatlarni ham qamrab oladi.

Yuqoridagi ma'lumotlarni inobatga olib aytish mumkinki, amaliy kompetentlik – bilish, tushunish, qo'llash, sintezlash va baholashdan iborat kognitiv-faoliyatli jarayonlar majmuasidir.

Psixologiya fani va amaliyotida "kompetensiya" tushunchasining talqini J. Xabermasning asarlarida uchratish mumkin, u kompetensiyani kommunikativ ratsionallik va diskursiv demokratiya nazariyasi bilan bog'liq sotsiologik atama sifatida keltirib o'tadi ^[8]. Yurgen Xabermas kompetensiyani odamlarning o'zaro tushunishga erishishi va umumiy yechimlarni ishlab chiqishga qaratilgan mazmunli, asosli nutqda qatnashish qobiliyati deb tasnif etadi va uni kompetentlik bilan chambarchas bog'liq bo'lgan bilimning uchta: texnik, amaliy va emansipativ shakliga ajratadi.

Bizning nuqtai nazarimizga ko'ra, kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning amaliy kompetentligini rivojlantirishda motivatsion-qiyamat komponentining quyidagi muhim jihatlarni inobatga olish zarur:

- shaxsiy ma'naviy qadriyatlar asosidagi yondashuv – bo'lajak o'qituvchi ta'lim jarayonida insonparvarlik, fidoiylilik, mas'uliyat kabi insoniy qadriyatlarni o'zlashtirishi, bu orqali esa o'z ishiga faqat zarurat yoki vazifa sifatida emas, balki shaxsiy missiya sifatida yondashishi;
- ichki motivatsiyani rivojlantirish – barqaror, ta'sirchan amaliy faollik uchun ichki ishtiyoqni rivojlantirish, ya'ni kasbga muhabbat va o'zini anglashi;
- kasbiy maqsadlarni aniq belgilash – talabalarda kasbiy kelajakni tasavvur qilish, jamiyatda o'z o'rnini topishga intilish orqali amaliy harakatlar ko'lamini kengaytirish;
- faoliyatdagi shaxsiy ma'noni anglash – ta'lim olish, amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etish, (4+2) maktab amaliyotini o'tash kabi jarayonlarda faol ishtirok etish.



Kognitiv komponent bo'lajak o'qituvchilarning amaliy kompetentligini rivojlantirishda zarur bo'lgan nazariy va amaliy xarakterdagi kasbiy bilimlarni o'z ichiga oladi. Zamonaviy pedagogik tahlillar shundan dalolat beradiki, bo'lajak o'qituvchilarning amaliy kompetentligini rivojlantirishda kognitiv komponent yetuklik mezoni sifatida qaraladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Kognitiv” atamasi (lotincha cognition – “bilish, o'rganish, anglash” so'zidan olingan) falsafa, psixologiya, tilshunoslik, neyrofiziologiya, etika va boshqa fanlarda qo'llaniladi [8]. Ko'pgina olimlarning fikricha, uning mohiyati talabalarning nazariy bilimlar tizimini egallashi bilan bog'liq bo'lib, tahlil qilish, umumlashtirish va yangi sharoitda qo'llash qobiliyatini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Ayniqsa, kredit-modul tizimi talabalarning mustaqil tahsil olishini rag'batlantirgani sababli, kognitiv jarayonlarni samarali boshqarish ko'nikmalariga ehtiyoj ortib bormoqda.

Talabalarda kognitiv qobiliyatlarni shakllantirish muammosi G. A. Atanov, Ye. S. Polat, I. N. Pustinnikovlar tomonidan o'rganilib, quyidagicha tavsiflangan:

- talabalarning bilish qobiliyatini belgilovchi asosiy ko'nikmalar;
- bilishga yondashuvni belgilovchi uslubiy malakalar;
- yangi ma'lumotlarni tushunish, eslab qolish va saqlashni osonlashtirish uchun shaxs tomonidan amalga oshiriladigan tashkiliy, yordamchi va bajaruvchi vazifalarni bajarishga xizmat qiladigan ko'nikmalar;
- bir fan bo'yicha malakalarni shakllantirishga tayyorlovchi fanlararo malakalar;
- faoliyatning muayyan sohasiga xos bo'lgan mavzuga oid ko'nikmalar [p. 52].

Bo'lajak o'qituvchilarning amaliy kompetentligini rivojlantirishda kognitiv komponentning asosiy jihatlari quyidagicha namoyon bo'ladi:

- talabalarda bilimlarni o'zlashtirish qobiliyati – pedagogika, metodika, psixologiya va didaktika materiallari bilan ishlashning nazariy asoslarini to'g'ri tushunish va ularni amaliyot bilan bog'lay olish mahorati bilan;
- tanqidiy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalari – ta'lim jarayonida berilgan ma'lumotni tanqidiy baholash, turli manbalarni solishtirish, muhokama qilish, yechimlar topish orqali shaxsiy fikrni shakllantirish asosida kognitiv o'sish bilan;
- muammolarni hal qilish strategiyalarini o'zlashtirish – kognitiv komponent muammoli vaziyatlarda mos bilimlar asosida qaror qabul qilish, pedagogik yechimlar ishlab chiqish bilan;
- metakognitiv salohiyat esa o'z bilimlarini nazorat qilish, o'quv jarayonida kuzatish va refleksiya qilish orqali shaxsiy ta'lim trayektoriyasini belgilashni anglatadi.

Faoliyatga asoslangan komponent tarkibida kasbiy mahorat va ko'nikmalarning shakllanish darajasi hamda kasbiy faoliyatga amaliy tayyorgarlik aks etadi. Bo'lajak o'qituvchilarning amaliy kompetentligini rivojlantirishda faoliyat komponenti shuni anglatadiki, bu kompetentlikni rivojlantirish nafaqat nazariy mashg'ulotlar orqali, balki amaliy faoliyatda faol ishtirok etish orqali sodir bo'ladi. Ushbu komponent bilimlarni amaliyotga qo'llash, haqiqiy muammolarni tahlil qilish va hal qilish, yangi vazifalarga moslashish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bunda faoliyat komponenti talabaning bilim va ko'nikmalarini hayotiy va kasbiy faoliyatga samarali tatbiq etish bilan bog'liq jihatlarni qamrab oladi. Kredit-modul tizimi sharoitida ta'lim oluvchilarning faol, mustaqil va ijodiy ishtirokini ta'minlashda quyidagi muhim jihatlarni inobatga olish zarur.

Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish – pedagogik faoliyatga oid amaliy mashg'ulotlarda (dars rejasi tuzish, mashg'ulot o'tkazish va baholash) ishtirok etish talabaning kasbiy tayyorgarlik darajasini rivojlantiradi; real vaziyatda to'g'ri va tezkor yechimlar ishlab chiqish, pedagogik faoliyatda to'g'ri yo'l tutish, mustaqil qaror qabul qilish; ta'lim jarayonidagi vazifalarni bajarishda faol ishtirok etish, jamoa bilan ishlash, hamkorlik qilish va ijodiy yondashuvni namoyon etish, interaktiv va amaliy faol bo'lish; amaliy faoliyat orqali orttirilgan tajribani tahlil qilish, xatolar ustida ishlash va o'zini takomillashtirish orqali tajriba va refleksiyaga asoslangan faoliyatni kuchaytirish. Yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, faoliyat komponenti talabaning “biladi” va “tushunadi” darajasidan “qiladi”, “amalda qo'llaydi” darajasiga o'tishini ta'minlaydi. Bu esa kredit-modul tizimi sharoitida ta'lim jarayonini innovatsion usullar asosida tashkil etish orqali ushbu komponentni samarali rivojlantiradi va natijada bo'lajak o'qituvchi o'z bilimini mustaqil ravishda amaliyotga joriy etish, tezkor va samarali yechimlar ishlab chiqish, hamkorlik va ijodiy faollikka moyil bo'lgan mutaxassisga aylanadi.

V. V. Davidov va boshqalar psixologik lug'atda “refleksiya” atamasiga quyidagi ta'rifni keltirib o'tadilar: “Refleksiya – bu harakat qiluvchi shaxsning aloqa sheriklari tomonidan uni qanday qabul qilinishini bilishi” [8]. Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning amaliy kompetentligini rivojlantirishda refleksiv kompo-

nent kasbiy-pedagogik faoliyat mahsuli va resurslarini, kasbiy hamda mehnat munosabatlari tizimini obyektiv baholash, o'z-o'zini tahlil qilish, o'qituvchi shaxsini rivojlantirish, o'z-o'zini rivojlantirish va samarali o'z-o'zini anglash maqsadi bilan belgilanadi. Bo'lajak o'qituvchilarning amaliy kompetentligini rivojlantirishda reflektiv komponentning muhim jihatlari quyidagicha namoyon bo'ladi: o'z faoliyatini tahlil qilish qobiliyati, bunda talaba ta'lim jarayonidagi ishtirokini, qabul qilgan qarorlari va natijalarini anglashi; o'z-o'zini baholash va tanqidiy fikrlash – ta'lim va amaliyot davrida o'z harakatlarini tanqidiy nigoh bilan ko'ra bilishi, muvaffaqiyat va kamchiliklarni tahlil qilishi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning amaliy kompetentligini rivojlantirish quyidagi psixologik va pedagogik shartlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning amaliy kompetentligini rivojlantirish uchun o'rganishga motivatsiya yaratish, faoliyatga asoslangan yondashuvni tashkil etish, nazariy va amaliy mashg'ulotlarni birlashtirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, fikrlash va o'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur.

- bo'lajak o'qituvchilarda amaliy kompetentlikni rivojlantirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish;
- bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiya elementlari asosida bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarni egallashida yuqori darajadagi motivatsiyani shakllantirish;
- bo'lajak o'qituvchilarda amaliy kompetentlikni rivojlantiruvchi bilimlar banki va bazasini boyitishda didaktik metod va vositalardan foydalanish;
- bo'lajak o'qituvchilarda amaliy kompetentlikni rivojlantirishning aniq, ta'sirchan mexanizmini yaratish;
- bo'lajak o'qituvchilarda amaliy kompetentlikni rivojlantirish imkonini beruvchi mind mapping (aqliy xarita tuzish) va concept mapping texnologiyalari, pedagogik simulyatsiyalar (pedagogical simulations), inter-aktiv kvest-ssenariylarni qo'llash hamda talaba portfoliosini yaratish.

O'rganishlarimiz va adabiyotlar tahlili asosida, xulosa o'rnida biz amaliy kompetentlikka mualliflik yondashuvi asosida quyidagi ta'rifni keltirib o'tamiz: "Amaliy kompetentlik – bu kredit-modul tizimi sharoitida ta'lim oluvchida shakllanadigan, real pedagogik faoliyatga mos ravishda amalga oshiriladigan, nazariy bilimlarga motivatsiya, tafakkur, amaliy tajriba va refleksiya orqali samarali integratsiyalashuvni ta'minlovchi murakkab shaxsiy-kasbiy sifatlarni majmuasidir". U faqat bilim emas, balki talaba tomonidan o'zlashtirilgan bilimni amaliyotda qo'llash qobiliyati, innovatsion yondashuv, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda yechim topish, hamkorlikda ishlash va o'z faoliyatini tahlil qilishni ham anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni: <https://lex.uz/docs/-4545884>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-76-sonli Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-7513052>
3. Равен Дж. Компетентность в современном обществе. – М.: Когито-Центр, 2002. – 200 с.
4. Белкин А. С. Компетентность. Профессионализм. Мастерство. – Челябинск: ОАО "Южно-Уральское книжное издательство", 2004. – 176 с.
5. Qo'ysinov O. A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: diss. ped. fan. dokt. (DSc). – Toshkent, 2019. – 218 b.
6. Морева Н. А., Котов А. С. Образовательная траектория как средство реализации компетентностного подхода в подготовке педагогов дошкольного образования // Педагогическое образование: вызовы XXI века. – М.: МАНПО, 2010. – С. 291–293.
7. Исаков Ж. А. Научные основы изучения понятий "компетентность" и "компетенция" в системе образования // Academic Research in Modern Science. International Scientific Online Conference. – С. 77–84.
8. Зимняя И. А. Психология обучения неродному языку. – М.: Русский язык, 1989. – 220 с.
9. Хуторский А. В. Деятельность как содержание образования // Народное образование. – Москва, 2003. – № 8. – С. 107–114. URL: <http://elibrary.ru/bitstream>
10. Муслимов Н. А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: пед. фан. докт. дисс. – Тошкент, 2007. – 361 б.
11. Рахметова Н., Сандибаева Ж., Калабаева Д. Педагогические условия формирования компетентности будущих педагогов профессионального образования // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований.
12. Болотов В. А. Компетентностная модель: от идеи к образовательной парадигме // Педагогика. – М.: 2003. – № 10. – С. 8.
13. Белицкая Г. Э. Социальная компетентность личности // Сознание личности в кризисном обществе / под ред.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.